

YOSHLAR NUTQIDA JARGONLARNING QO'LLANISHI

Abduvohidov Behruz

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ergasheva Dilrabo

Annotatsiya: *Ushbu maqola jargonlarning asossiy quyi tizimlaridan biri sifatida yoshlar jargoniga bag'ishlangan. Bu maqola qisqacha bo'lsaham yoshlar nutqida ko'proq ishlatiladigan so'zlar va ularning izohini qo'llanilgan gaplar orqali ochib berishga urundik. Jargonlarni boyishi ko'proq yoshlar nutqida chetdan kirib kelgan so'zlarni o'zlarining tillariga moslashtirib jamiyatda qo'llashida.*

Kalit so'zlar: *Jargonlar, jargonlarni o'rganish, jargonlarni boyishi, quloq, gavrik.*

Nutq jarayonida jargonlardan foydalanish zamonaviy tilni rivojlanishining o'zigaxos jihatlaridan biridir. Jargonlarga oid so'zlar zamonaviy badiiy adabiyotda, so'zlashuv nutqida, ayniqsa, yoshlar nutqida faol boladi. Tabiiyki jargon o'zi nima? - degan savol paydo bo'ladi. Jargon - bu adabiy tilning faqat ma'lum bir guruhdagi so'zlashuvchi odamlarga tushunarli shaklda takrorlanishi. Bu ob'ektlar, harakatlar va ta'riflarning klassik ta'riflari uchun normativ bo'lmagan, tan olinmagan sinonimlardir. [3;245-247 b] Jamiyatning har bir ijtimoiy bo'linmasining jarangli so'zlari jargon deb ataladigan, tushunilmaganlar tushuna olmaydigan muloqot tilini tashkil qiladi. Bu muloqot tilidan harbiylar, o'qituvchilar, shifokorlar, jurnalistlar va yoshlar nutqida ko'p foydalaniladi. Hozir biz yoshlar nutqida foydalaniladigan jargonlarni misollar yordamida ko'rib chiqsak. [2;400 b] Ushbu lug'atlar orasida alohida guruh mavjud yoshlar jargon lug'atlaridir. Shunday qilib, XX asr oxirida, bir nechta nisbatan kichik lug'atlar nashr etilgan: "Yoshlik jargoni lug'ati" M.A. Gracheva, A.I. Gurova (1989), Yoshlar jargonining lug'ati. So'zlar. Ifodalar. Rok yulduzlarining taxalluslari. O'qituvchilarning taxalluslari, tahrirlangan I.A. Sternina (1992) va boshqalar. Nashir etilganlar orasida eng to'liqligi T.G.ning lug'atidir. Muqaddimada muallif shunday yozadi: "Ushbu lug'at avvalroq 70-90-yillardagi yoshlar jargonini (jargonini) tasvirlash uchun paydo bo'lgan kichik leksikografik tajribalardan farqli o'laroq, yoshlar leksikasini to'liq, tizimli tavsiflashga qaratilgan. Bu sobiq kalcha tizimining jarangidir, unga yaqinroq "mafkuraviy" yoshlar guruhlari va torroq ixtisoslashgan uyushmalar - to'sarlar, velosipedchilar, bodibilderlar, metall ishchilar va boshqalar. Yangi materiallar so'nggi yoshlarning savdo, biznesga qiziqish ortib borayotganini aks ettiradi; Kompyuter o'yinlari, shov-shuvli musiqa. An'anaga ko'ra, lug'atda maktab, talaba va armiya jargonlari keng tarqalgan. [3;54 b]

Yoshlar orasida ishlatiladigan jargon so'zlar:

gavrik - zerikarli odam;

Hayot zinapoyaga o'xshaydi, qadamma qadam ko'tarilib borasan. Unda ba'zan gavrik odamlar ba'zan sho'x odamlarga duch kelasan. ("sharq yulduzi ") Gapda gavrik so'zi zerikarli odam manosida kelayabdi

jo'ja - qiz;

Xonadagi jo'jalardan bitta jo'ja husn va malohatda ajralib turar edi. Gapda jo'ja so'zi qiz manosida qo'llanmoqda.

do'stim - yigit;

Do'stim siz boshqa bolalar ichida ajralib turasiz. Ushbu gapda do'stim so'zi yigit manosida qo'llanmoqda.

jo'jani olib tashlang - qizni aldash;

Do'stim bugun xiyobonga jo'jani olib tashlagani bormaymizmi? Ushbu gapda jo'jani olib tashlagani so'z birikmasi qizni aldash manosida qo'llangan.

klubeshnik - klub;

Darslar, kompyuter o'yinlari, klubeshnikar bari jonga tegdi. Ushbu gapda klubeshnik so'zi klub manosida qo'llangan.

diskach - diskoteka;

Sobirjon ko'cha bolalariga qo'shib diskachga boradigan odat chiqardi.

("sharq yulduzi ") Ushbu gapda diskach so'zi diskoteka manosida qo'llangan.

o'zini ko'rsatish - o'z qadr-qimminatingizni himoya qiling;

Buning asosiy maqsadi o'zini ko'rsatish edi. Ushbu gapda o'zini ko'rsatish so'zi o'z qadr-qimmatini himoya qilish manosida qo'llangan.

tayanch - kvartira;

Studentlarni ko'p vaqti tayanchda telefon o'yinlarini o'ynash bilan o'tadi. Ushbu gapda tayanch so'zi kvartira manosiga qo'llangan.

ajdodlar - ota-onalar;

Alisherni ajdodlarini so'kganligi sababli Sobirni yuzuni qonga bo'yab tashadi.

("sharq yulduzi ") Ushbu gapda ajdodlarini so'zi ota onasini manosida qo'llangan.

Yorilish - gapirish;

Bugun Anora ichi dard alamga to'lganidan, unga bardosh beraolmay dugonalariga yorildi. Ushbu gapda yorilish so'zi gapirish manosida qo'llangan.

umatovo - ajoyib;

Akbar umatovo ish qilganidan faxirlanar edi. Ushbu gapda umatovo so'zi ajoyib manosida kelgan.

pret - menga juda yoqadi;

Do'stlarim sizlarga pret ishlardan bir nechtasini aytaymi? Ushbu gapda pret so'zi menga juda yoqadigan manosida qo'llangan

quyonni rasmini chizmoq-qochmoq;

Bugun gruppamiz leksikografiya fanidan quyonni rasmini chizdi. Ushbu gapda quyonni rasmini chizmoq so'zi qochmoq manosida qo'llangan.

uxlatmoq-chuv tushurmoq;

Alisher meni yuz mingga uxlatgani hanuzgacha yodimdan chiqmaydi.Ushbu gapda uxlatmoq so'zi chuv tushurmoq manosida qo'llangan. [1;126 b]

ugom qilmoq-o'g'irlamoq;

Do'stlar birgalashib muzeydagi qimmatbaxo buyumlarni ugom qilishga bel bog'lashdi.Ushbu gapda ugom qilmoq so'zi o'g'irlamoq manosida qo'llangan.

mehr kerak -talaba nutqida ota yoki onasidan pul so'rash;

Talaba qizonasiga puli tamom bo'lganligi tufayli telefon qilib "Onajon hozir ozgina qiynalib qoldim menga mehr kerak"-dedi.Ushbu gapda mehr kerak so'zi pul kerak manosida qo'llangan.

kadi-biror narsaga tushunmaydigan kishi;

Anvarjon sinfda yahshi o'qimaganligi uchun sinfdoshlari uni kadi deya mazah qilardi.Ushbu gapda kadi so'zi hech narsaga tushunmaydigan manosida qo'llangan.

shamol bo'lmoq-dars mashg'ulotlaridan qochmoq;

Ayrim guruh talabalarini ichki so'zi bo'lib darsdan qochmoq manosida qo'llanadi.

ko'zoynak-ko'zoyak taqqan o'qituvchi;

Maktabda ko'zaynak keldi desa, hamma ona tili oqituvchisini tushunar edi.Ushbu gapda ko'zoynak so'zi o'qituvchi manosida qo'llangan.

zaxar-ko'proq bo'ysunmagan qizni shunday ataydi;

Menga ko'pincha derski va zahar qizlar yoqadi.Ushbu gapda zahar so'zi bo'ysunmas qiz manosida qo'llangan.

kashnich-qoradorini yoshlar orasida atalishi;

Bu atama narkotikka berilgan yoshlarimiz boshqalar tushunmasligi uchun kashnich so'zini qo'llaydi. [1;276 b]

quloq-gap tashuvchi;

Bolalar bas qilinglar oramizda quloq bor.Ushbu gapda quloq sozi gap tashuvchi manosida qo'llangan.

orqasi biton-katta manshabda; ishlaydigan kishiga suyanuvchi shaxs;

O'zingdan ketmagin orqang biton bo'lsaham .Ushbu gapda orqasi biton so'zi tanki kuchli yani ishonuvchisi bor manosida qo'llangan.

sindirmoq-lol qoldirmoq;

Alisher hamma talabalarni qilgan ishi bilan sindirib tashladi.Ushbu gapda sindirmoq so'zi lol qoldirmoq manosida qo'llangan.

g'isht -xunuk;

Shu qizgaham gapirasanni yuzini qara g'isht bo'lib yotibdi.Ushbu gapda g'isht so'zi xunuk manosida qo'llangan.

Yaltaga ketmoq-bugun darsga bormaslik;

Kursdoshlar bugun men yaltaga ketayabman NB qo'ymasin ustoz.ushbu gapda yaltaga ketmoq so'zi darsga bormayman manosida qo'llangan. [1;234 b]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent 2020.
- 2.. Őzbekiston Milliy ensiklopediyasi; Toshkent 2013
3. Mitrofanov E.V., Nikitina T.G. Yoshlik jargoni. Lug'at tajribasi. - M., 1994 yil